

PAPER

O'ZBEKISTONDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHGA O'TISHNING IQTSODIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xikmatova Husnora Fatxulla qizi^{1, *}

¹TDIU mustaqil izlanuvchisi

*husnora.sheraliyeva@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirishning huquqiy asoslari o'rganilgan. Yashil moliyalashtirish ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida qaraladi. O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari va huquqiy normativ hujjatlari, xususan, “yashil” obligatsiyalar, ekotizimlarni saqlash va qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekistonning yashil moliyalashtirishni rivojlantirish uchun qo'ygan strategik maqsadlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu sohada huquqiy tizimning takomillashtirilishi va yurtimizda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun zaruriy chora-tadbirlar taklif qilinadi.

Key words: yashil iqtisodiyot, “yashil” moliyalashtirish, ESG, Green Bond, “yashil” obligatsiyalar, huquqiy asoslar, ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishlari, qayta tiklanadigan energiya, sarmoya, huquqiy normativ hujjatlar.

Kirish

Songgi yillarda global miqyosda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil moliyalashtirish muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqda. “Yashil moliyalashtirish” atamasi ekologik toza, uglerod chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni anglatadi.

Vaqt o'tishi bilan atrof-muhitning yomonlashishi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda, bu esa o'z navbatida jamiyat va davlatning bu borada aniq tendentsiya va yechimlar ishlab chiqishga undamoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston oldida qiyin vazifa - tabiatga ta'sir nazoratini ta'minlash, atrof-muhitni asrash va ekologik jihatdan toza saqlab, budjetdan moliyalashtirish turibdi. Ushbu vazifalarni bajarishda avvalo, quyidagilarni ko'rib chiqishi kerak bo'ladi:

- “Yashil moliyalashtirish” ni amalga oshirish jarayonida zamonaviy davlat budjeti siyosatining tahlili, ESG (Atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, korporativ boshqaruv) tamoyillarini o'rganish.

- ESG tashabbusining byudjet siyosatini amalga oshirishga ta'sirini tahlil qilish.

- Byudjet jarayonining bir qismi sifatida “yashil” byudjet-

lashtirishni hisobga olgan holda mavjud muammolarni aniqlash.

- Moliya va budjet tizimini “yashillashtirish” bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish.

- “Yashil” moliyani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va budjet siyosatini amalga oshirish jarayonida qo'llash.

Yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirishda O'zbekistonda ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi -2030” qabul qilinib, bu yo'nalishdagi huquqiy va institutsional asoslar takomillashtirilmoqda. Ammo yashil moliyalashtirish jarayonini samarali tashkil etish, u bilan bog'liq huquqiy mexanizmlarni aniqlashtirish va amaliyotga joriy qilish hali ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bugungi kunda ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish maqsadida yashil moliyalashtirishni tartibga soluvchi aniq huquqiy asoslarni shakllantirmoqda. Bu yo'nalishdagi jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, barqaror moliyaviy tizim yaratish uchun yuridik bazaning aniqligi, shaffoflik va institutsional mexanizmlar muhim ahamiyatga ega.

Xitoy Xalq Respublikasi yashil obligatsiyalar bozorini faol rivo-

jlantirgan mamlakatlardan biridir. U 2015-yilda Green Bond Guidelines qabul qilib, ushbu moliyaviy vositalar uchun yuridik asoslarni belgiladi. Markaziy bank va moliya vazirligi yashil loyihalar uchun ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatib bergan. Bugungi kunga kelib Xitoy dunyodagi eng yirik yashil obligatsiyalar emitentlaridan biri hisoblanadi.

AQShda yashil moliyalashtirishga oid yagona federal qonun mavjud emas, ammo shtatlar darajasida muhim tashabbuslar mavjud. Masalan, Kaliforniya shtati ekologik moliyalashtirishni tartibga soluvchi maxsus qonunlarga ega. Shuningdek, U.S. SEC (Securities and Exchange Commission) yashil investitsiyalarni tartibga solish, shaffoflik va atrof-muhitga ta'sir bo'yicha axborot berishni talab qilmoqda.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar yashil moliyalashtirishni targ'ib qiluvchi yuridik va moliyaviy vositalarni ishlab chiqmoqda. Masalan, Green Bond Principles (GBP) —bu xalqaro darajadagi ko'ngilli standart bo'lib, yashil obligatsiyalar chiqarishda investorlar uchun asosiy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Rus olimlaridan Kulikova Yekaterina Borisovna hukumat munitsipalitetlar, shuningdek, yashil moliya bilan shug'ullanadigan muassasalar va kompaniyalarga moliyaviy va uslubiy yordam ko'rsatadi. Ular foizli subsidiyalar, "yashil" obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtiriladigan loyihalar uchun kafolatlar beradi, shuningdek, bunday qimmatli qog'ozlarni chiqarish xarajatlarini qoplashga yordam beradi, ularni sotib olishga institutsional investorlarni jalb qilishga yordam beradi. Bugungi kunda Xitoy bozori yashil obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinni egallab, 17,2 milliard dollarni tashkil etib, AQSh (51,1 milliard dollar), Germaniya (40,2 milliard dollar) va Fransiya (32,1 milliard dollar) keyin turadi[7].

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent T.A.Gorbacheva va K.G.Bunevichlar o'z maqolalarida yirik xalqaro kompaniyalar yashil obligatsiyalar chiqarishga qiziqish bildirib boshladilar, jumladan Alphabet xoldingi – Google egasi –2020-yilda qiymati 5,75 mlrd AQSh dollari miqdorida, Apple 2021-yil mart oyida 4,7 milliard dollarlik yashil obligatsiyalar chiqardi. Amazon o'zining barqarorlik obligatsiyalarini qayta tiklanadigan energiyaga 1 milliard dollar investitsiya jalb qildi, deya ma'lumot keltirib o'tdilar[6].

A.V. Vaxobov O'zbekiston iqtisodiyotida yashil loyihalarni moliyalashtirishning amaliy muammolari haqida fikr yuritgan holda davlatning roli va siyosatining ahamiyatiga urg'u bergan. U davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari hamda subsidiyalar orqali yashil loyihalarni rag'batlantirish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, u yashil kreditlar va karbon bozorlarini rivojlantirish, ekologik toza energetika loyihalarini moliyalashtirishda banklar va moliya institutlarining rolini oshirish lozimligini bildirgan[4].

Umuman olganda, bu olimlarning fikricha, mamlakatda yashil loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish uchun bir qator asosiy omillar mavjud. Davlat tomonidan ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash, yashil moliyaviy instrumentlardan foydalanish, xususi sektorning faolligi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik va yangi texnologiyalarga investitsiyalar kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar

Yangi O'zbekiston davlati iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy o'sishga erishish, shu bilan birga fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga intilayotgan bir paytda, atrof-muhit degradatsiyasi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish zaruratiga ham duch kelmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida qator qonunosti hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ayni paytda ushbu hujjatlar doirasida tegishli choralar amalga o-




Figure 1. O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining asosiy maqsadlari

hirilmoqda. (Table 1)

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-436-son qarori qabul qilindi. Hujjat bilan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan:

- issiqxona gazlarining ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35%ga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30%idan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20%ga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30%ga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 mln ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30%dan ortiqroqqa kengaytirish;
- qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65%dan oshirish va boshqalar.

Yana bir Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori asosida 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot" ga o'tish strategiyasi tasdiqlandi va bu qonun doirasida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi O'zbekistonda barqaror rivojlanishni rag'batlantirishning potentsial yechimi sifatida paydo bo'ldi. Yuqoridagi rasmda (Figure 1) ushbu qarorning asosiy maqsadlarini keltirib o'tamiz:

Bu maqsadlar asosida mamlakatda 2030-yilgacha quyosh, shamol, biogaz va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish hamda shu bilan bir qatorda yashil moliyalashtirishni yo'lga qo'yish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida urg'u berilgan.

Mamlakatimizda yashil moliyalashtirish sohasida huquqiy asoslarning shakllanishi so'nggi yillarda sezilarli darajada jadalashdi. 2019-yilda PQ-4477-sonli Prezident qarori bilan "Yashil

Table 1. O'zbekiston Respublikasida "Yashil iqtisodiyot" ga oid qabul qilingan qonun hujjatlari

№	Qonun/ hujjatlar nomi	Qabul qilingan sana	Asosiy mazmuni
1.	O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni	1992-yil 9-dekabr	Ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid asosiy prinsiplar
2.	"Yashil iqtisodiyotga o'tish to'g'risida" gi Prezident qarori	2019-yil 4-oktabr	2030-yilgacha yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish strategiyasi
3.	"Yashil energiya" konsepsiyasi	2020-yil	Iqtisodiyotda ekologik barqaror energiya ishlab chiqarishni rag'batlantirish
4.	"2030-yilgacha Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaror	2022-yil 2-dekabr	Yashil iqtisodiyot bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish, tarmoqlar rivojlanishi strategiyalarini, yashil o'sish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish kabi chora-tadbirlarni nazarda tutadi
5.	"Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror	2023-yil 29-sentabr	Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi
6.	"Milliy "Yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qaror	2023-yil 25-oktabr	Yashil iqtisodiyotga oid faoliyatlarni tasniflash, baholash va moliyaviylashtirish uchun aniq va samarali mezonlar tizimini joriy etish
7.	"2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror	2023-yil 16-fevral	Energiya xavfsizligini ta'minlash, elektr energiyasiga bo'lgan talabni qoplash, ekologik toza energiya manbalarini oshirish
8.	"O'zbekiston Respublikasida 'yashil' iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror	2024-yil 5-iyun	O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xalqaro standartlarga mos, shaffof va hisobdor monitoring hamda hisobot tizimini joriy etish

iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilinishi ushbu yo'nalishda muhim huquqiy bosqich bo'ldi. Mazkur qaror asosida ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va barqaror rivojlanish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi hamda Ekologiya vazirligi tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan qo'shimcha me'yoriy hujjatlar — masalan, "Yashil obligatsiyalar chiqarish tartibi", "Moliyaviy institutlar uchun ekologik tavsiyalar"—yashil moliyalashtirish amaliyotiga huquqiy barqarorlik kiritdi. Bu esa investorlar va tijorat banklari uchun aniq yo'riqnomalar va kafolatlar yaratdi.

Xalqaro tajribani hisobga olgan holda, Yevropa Ittifoqi va Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda O'zbekistonda birinchi yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari joriy etildi. Shu jumladan, 2023–2024-yillarda birinchi yashil obligatsiyalar chiqarildi, bu esa moliyalashtirishning ekologik jihatdan mas'uliyatli shakliga o'tish bosqichini anglatadi.

Xususan, O'zbekiston jahon moliya bozorlarida qiymati \$1,5 milliardga teng bo'lgan yangi suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirdi. London shahrida 18–20-fevral kunlari AQSh dollari, yevro va so'mda chiqarilgan obligatsiyalar uchun buyurtmalar qabul qilindi. Umumiy buyurtmalar hajmi \$4,2 milliardni tashkil etdi. Ular quyidagicha taqsimlandi:

- AQSh dollari (7 yilga) –\$500 mln, yillik 6,95% stavkada;
- Yevro (4 yilga) –€500 mln (\$525 mln), yillik 5,1% stavkada;
- So'm (3 yilga) – 6 trln so'm (\$463 mln), yillik 15,5% stavkada.

Obligatsiyalardan tushgan mablag'lar 2025-yilgi davlat budjeti taqchilligini qoplash, ipoteka dasturini moliyalashtirish va ijtimoiy obyektlarni qurish uchun yo'naltiriladi.

Bu nafaqat moliyaviy yutuq, balki O'zbekistonning ekologik barqarorlik yo'lida bosgan ulkan qadami, dunyo miqyosida yashil loyihalarga sarmoya jalb etishga bo'lgan qat'iyatini ifodalaydi. "Yashil" obligatsiyalar bilan mamlakat o'zining kelajakdagi tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga bo'lgan sodiqlikni namoyish etmoqda, shu bilan birga iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda ham o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda

2024-yil boshida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiya uchun ilk bor 2000 dona "Yashil energiya" sertifikatlari emissiya qilindi. O'zbekiston

2025-yilda xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlardan umumiy qiymati 250 million AQSh dollari atrofida mablag' jalb qilishni maqsad qilgan. Ushbu mablag'lar grantlar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida bo'lib, quyidagilarni (Table 2) o'z ichiga oladi:

Biroq, muammolar ham mavjud: yashil loyihalarni baholash mezonlari hali yetarlicha tizimlashtirilmagan, moliyaviy institutlar va xususiy sektor uchun ushbu huquqiy me'yorlarning amaliy ijrosi bo'yicha tushunmovchiliklar mavjud. Yashil moliyalashtirishni rag'batlantiruvchi soliq yengilliklari, grant mexanizmlari va subsidiyalar tizimi hali to'liq shakllanmagan. Muhokama sifatida aytish mumkinki, mavjud huquqiy asoslar dastlabki bosqichda bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston hukumati yashil moliyalashtirish yo'nalishida izchil va muvofiqlashtirilgan siyosat olib bormoqda. Kelgusida mazkur siyosatning samaradorligini oshirish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos keluvchi ekologik moliyaviy reyting tizimini joriy etish zarur.

Xulosa

O'zbekiston tabiiy xaziralar hamda ekologik xizmatlardan foydalanishda tobora samarali bo'lib bormoqda, lekin shu bilan bir qatorda kapitalga nisbatan bosim saqlanib qolmoqda.

Yashil obligatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari va ekologik bank mahsulotlari orqali ekologik jihatdan mas'uliyatli moliyalashtirish shakllari tobora kengaymoqda. Shu bilan birga, sohadagi ba'zi huquqiy bo'shliqlar, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi va xalqaro reyting tizimlarining yo'qligi muammodir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish sohasidagi huquqiy asoslar tobora shakllanmoqda, rivojlanmoqda. Biroq ushbu jarayonni yanada takomillashtirish uchun chuqur tahlil, xalqaro hamkorlik va davlat siyosatining uzviy muvofiqlashtirilishi zarur. "Yashil iqtisodiyot" ga o'tishda ko'proq iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Table 2. O'zbekistonning 2025-yil uchun yashil va past uglerodli rivojlanish loyihalari bo'yicha moliyaviy rejalari

Donor/Tashkilot	Mablag' miqdori	Moliyaviy ko'mak turi	Maqsad / Izoh
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD)	200 million yevro	Imtiyozli kredit	Yashil va past uglerodli loyihalarni qo'llab-quvvatlash
Jahon banki	10 million AQSh dollari	Grant / texnik yordam	Umumiy yashil o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash
Germaniya xalqaro hamkorlik agentligi (GIZ)	20 million yevro	Grant	O'zbekiston sanoatini ekologiklashtirishni rag'batlantirish
Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA)	6.5 million AQSh dollari	Grant / loyiha moliyalash	Yashil tashabbuslarni rivojlantirishda hamkorlik
Jahon banki loyihasi (ICH chiqindilarini kamaytirish)	7.5 million AQSh dollari	Natiqaga asoslangan moliyalashtirish	Issiqxona gazlari chiqindilarini 500 000 tonnaga kamaytirish loyihasi

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, 02.12.2022 yil PQ-436-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019—2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori, 04.10.2019 yil PQ-4477-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 05.06.2024 yil PQ-213-son
4. Vahobov A.V, Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot, darslik "Universitet" 2020 y
5. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot, darslik. Toshkent: "Ma'rifat" 2024 y
6. Gorbacheva T.A, Bunevich K.G. Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Rossiya Federatsiyasi yashil moliya amaliyotini tahlil qilish. <https://cyberleninka.ru>. 23.09.2022
7. Kulikova E. B. "Yashil" moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi / E. B. Kulikova. — Matn: darhol // Yosh olim. - 2024. - No 31 (530). — B. 21-25. —URL: <https://moluch.ru/archive/530/116941/> (kirish sanasi: 04/07/2025).
8. <https://hpb-s.com/en/news/green-projects-in-uzbekistan/>
9. <https://uz.kursiv.media/uz/>